

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**AZIMOVA NARGIZA RAVSHANOVNA**

**TARKIBIDA NIKOTIN SAQLOVCHI KIMYOVIY MAHSULOTLARNI  
TOVARLAR NOMENKLATURASI ASOSIDA SINFLASH**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Azimova Nargiza Ravshanovna**

Tarkibida nikotin saqlovchi kimyoviy mahsulotlarni tovarlar nomenklaturasi asosida sinflash..... 3

**Азимова Наргиза Равшановна**

Классификация химической продукции, содержащей никотин, на основе товарной номенклатуры..... 21

**Azimova Nargiza Ravshanovna**

Classification of chemical products containing nicotine based on commodity nomenclature..... 39

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**AZIMOVA NARGIZA RAVSHANOVNA**

**TARKIBIDA NIKOTIN SAQLOVCHI KIMYOVIY MAHSULOTLARNI  
TOVARLAR NOMENKLATURASI ASOSIDA SINFLASH**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi  
02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida \_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Qo‘qon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbarlar:**

**Abduganiyev Baxtiyor Yermaxamatovich**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Xo‘jayev Vaxobjon Umarovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Abdulloyev Obidjon Shaxabidinovich**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Nishonov Mirkozimjon**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi., 19. Tel.: (99873) 244-44-02, faks (99873) 244-44-93, e-mail: [fardu-info@umail.uz](mailto:fardu-info@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A.Ibragimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash majlisi raisi,  
k.f.d., professor

**Sh.Sh.Turg‘unboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, k.f.b.f.d. (PhD)

**Sh.V.Abdullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda tamaki mahsulotlarining inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirishi ko‘plab tadqiqotlar bilan isbotlangan bo‘lishiga qaramay tamaki mahsulotlarning yillik aylanmasi milliardlar dollarni tashkil qiladi. Inson salomatligiga zarari haqidagi isbotlar bu mahsulotlarga turli davlatlar tomonidan cheklovlar belgilanishiga sabab bo‘lmoqda. Tamaki sanoatiga ixtisoslashgan korxonalar bozordagi mavqeini yo‘qotmaslik maqsadida cheklovlarni aylanib o‘tishning turli xil usullarini qo‘llamoqdalar va nikotin saqlovchi tamaki mahsulotlarining zamonaviy turlarini taklif etmoqdalar. Bu birinchi navbatda, tamaki mahsulotlarining turlari ko‘payib borayotganligini va ularning savdosidan tushadigan tushumlar iqtisodiyotda muhim o‘rin egallashi bilan bog‘liq. Ushbu holatni o‘nglash uchun tamaki mahsulotlarining kimyoviy tarkibini aniqlashning universal uslubiyotlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarni kimyoviy tarkibini tadqiq qilish, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish orqali tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha kod raqamlarini to‘g‘ri belgilash hamda ularni bir-biridan farqlash uslubiyotlarini ishlab chiqish yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida tarkibidagi nikotin va boshqa bir qator kanserogen moddalarni identifikatsiya qilish uchun zamonaviy fizik-kimyoviy, ya‘ni mass-spektrometriya, xromato-mass-spektrometriya, infraqizil spektroskopiya usullarni qo‘llash ishonchli natija berishi natijasida mazkur uskunalardan foydalangan holda identifikatsiya usullarini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda eksport va import qilinayotgan mahsulotlarni kimyoviy tarkibiga asoslangan holda TIF TN tasniflash va kod raqamlari berish ishlari amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan «Xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish»ga yo‘naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan<sup>1</sup>. Bu borada nikotin saqlovchi kimyoviy mahsulotlarni tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlari nomenklaturasi asosida tasniflashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi PF-5646-sonli «Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish hamda uzumchilik va vinochilikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda 2022-yil 9-iyundagi PF-150-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» to‘g‘risidagi Farmoni.

to'g'risida"gi Farmonlarini va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Tibbiyot va farmakologiya" va "Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tamaki saqllovchi mahsulotlarning kimyoviy birikmalarini hamda ularning inson salomatligiga ta'sirini o'rganish borasidagi izlanishlar jahonning turli mamlakatlarida amalga oshirilgan bo'lib bu boradagi tadqiqotlarda R.L.Stedman, A.Rodgman, T.A.Perfetti, R.A.Jenkins, B.A.Tomkins, M.R.Guerin, D. Hoffmann, J.R.Fovles kabi olimlar tomonidan mazkur sohada salmoqli natijalarga erishilgan. Turli ilmiy markazlarda tamaki saqllovchi mahsulotlar tarkibidagi kimyoviy birikmalarni ajratib olish va ularni tuzilishini o'rganish, bu birikmalarni inson organizmiga ta'sirini tadqiq qilish orqali zaharli birikmalarni aniqlash, zaharli moddalarni ta'sirini kamaytirishga doir tadqiqotlar hamda bu mahsulotlarni identifikatsiyalash va tasniflash borasida keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda tovarlarni tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi asosida kimyoviy tarkibiga muvofiq sertifikatlash va tasniflash tadqiqotlariga I.R.Asqarov, A.A.Ibragimov, K.M.Karimqulov, G'.Hamraqulov, L.T.Po'latova, B.Yo.Abdug'aniyev, Sh.M.Qirg'izov, A.M.Jo'rayev, N.X.To'xtaboyev va boshqalar katta hissa qo'shishgan. Ular tovarlarni identifikatsiyalash, ularning kimyoviy tarkibini o'rganish va shu asosida sinflash hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha metodologiya yaratilgan, lekin tarkibida nikotin saqllovchi mahsulotlarning kimyoviy tarkibini o'rganish asosida tasniflash yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Nikotin saqllovchi kimyoviy mahsulotlarning tarkibini tadqiq qilish va shu asosida ularga tegishli TIF TN kod raqamlarini yaratish bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligidan dalolat beradi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qo'qon davlat pedagogika institutining "Tarkibida nikotin saqllovchi kimyoviy mahsulotlarni tovarlar nomenklaturasi asosida sinflash" ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Respublika hududiga olib kirilayotgan va undan olib chiqib ketilayotgan nikotin saqllovchi mahsulotlar kimyoviy tarkibini tekshirishning yuqori aniqlikdagi, ishonchli va tezkor uslublarini ishlab chiqish orqali davlat budjetiga tushayotgan aksiz solig'i va bojxona to'lovlari to'liqligini ta'minlashdan hamda nosvoy tarkibini kompleks aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tamaki va boshqa nikotin saqllovchi mahsulotlar tarkibidagi makro va mikroelementlarini emission yarim miqdoriy spektral usulida tahlil qilish;

tamaki va boshqa nikotin saqllovchi mahsulotlar tarkibidagi oqsil miqdori va aminokislotalar tarkibini aniqlash;

tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarning kimyoviy tarkibi tadqiq qilinib davlat budjetiga to'lanadigan aksiz solig'i va bojxona to'lovlarini amalga oshirishda imtiyozlarning noto'g'ri belgilanishiga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etish;

tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarning xalqaro texnik reglamentlari bo'yicha ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish va unga ilmiy asoslangan holda yangi ko'rsatkichlar kiritish yuzasidan taklif tayyorlash;

tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarga yangi tovar kodlarini taklif etish va O'zbekiston Respublikasi TIF TNning yangi tahririga qo'shish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyahasini tayyorlashda ishtirok etish;

tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarni xalqaro texnik reglamentlariga ilmiy asoslangan holda kiritilgan yangi ko'rsatkichlarni aniqlash uslublarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish;

nikotin saqlovchi kimyoviy mahsulotlarni, shu jumladan, nosvoy kimyoviy tarkibini zamonaviy fizik-kimyoviy xromato-mass-spektrometriya, mass-spektrometriya va IQ-spektrometriya usullardan foydalanib tadqiq etish;

nosvoy kimyoviy tarkibini kompleks o'rganish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasidan eksport qilinayotgan hamda unga import bo'layotgan hamda tarkibida nikotin saqlovchi tamaki va boshqa kimyoviy mahsulotlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** eksport va import bo'layotgan, tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlarni aniqlash usulini takomillashtirish hamda kimyoviy tarkibi asosida tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar nomenklaturasi bo'yicha tasniflash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini bajarishda organoleptik, kimyoviy (ekstraksiya, metillash, oqsilni gidroliz) va uskunaviy (xromato-mass-spektrometriya, mass-spektrometriya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, emission yarim miqdoriy spektral tahlil va infraqizil spektrofotometriya) usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarning kimyoviy tarkibi aniqlangan, kimyoviy tarkibni tahlil qilishning optimal sharoitlari ishlab chiqilgan;

tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlar tarkibidagi makro va mikroelementlar va oqsil miqdori, aminokislotalar tarkibi aniqlangan hamda bu mahsulotlar oqsil tuzuvchi aminokislotalarning manbayi ekanligi isbotlangan;

nosvoyning bakterial va kimyoviy tarkibi hamda uning tarkibida pestitsid, bakteriyalar, nitrobirikmalar, benzpiren, xrom, nikel, mishyak, kadmiy, qo'rg'oshinlarni miqdori aniqlangan;

tamakili va tamakisiz snyuslar uchun kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi tovar kod raqami ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlardagi nikotinni aniqlash usuli yaratilgan;

tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlarning kimyoviy tuzilishi asosida sinflab, tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga binoan yangi tovar kodlari ishlab chiqilgan;

respublikada tayyorlanayotgan nosvoy tarkibidagi pestitsid, bakteriyalar, nitrobirikmalar (nitrit, nitrozodimetilamin, n-nitrozoamin), benzpiren, xrom, nikel, mishyak, kadmiy, qo'rg'oshin miqdorini aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqotda mass-spektrometriya, xromato-mass-spektrometriya va IQ-spektrometriya usullaridan foydalanganligi, shuningdek, olingan natijalar xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda olingan natijalar asosida ilmiy maqolalar nashr etilganligi bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlardagi makro va mikroelementlar, oqsil miqdori va aminokislota tarkibi aniqlanganligi, ularning tarkibini o'rganishda xromato-mass-spektrometrik tahlil yordamida aniqlashning optimal sharoitlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tamaki va boshqa mahsulotlar tarkibini aniqlashda xromato-mass-spektrometriya eng qulay usul ekanligi ko'rsatilgan. Tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlar kimyoviy tarkibini aniqlash uchun tezkor, ishonchli va aniq bo'lgan analitik uslub hamda TIF TN bo'yicha yangi tovar kodi ishlab chiqilganligi bojxona amaliyotida qo'llash uchun xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlarning kimyoviy tarkibi asosida TIF TN kod raqamlarini belgilash va standartlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tarkibida nikotin bo'lgan mahsulotlar uchun bojxona ekspertizasini amalga oshirishda tezkor, ishonchli va aniq bo'lgan analitik uslubi davlat bojxona amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi Markaziy bojxona laboratoriyasining 2024-yil 23-maydagi 17/05-24-0994-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu uslub-tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlarni tasniflashning soddalashtirilish imkonini bergan;

Tamakili va tamakisiz snyuslarga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha 2404 91 000 9 kod raqami davlat bojxona amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi Markaziy bojxona laboratoriyasining 2024-yil 24-mayda berilgan 17/05-24-1002-son ma'lumotnomasi). Natijada, eksport va import jarayonlarida boj to'lovlari va aksiz solig'i stavkalarini to'g'ri belgilash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning ilmiy tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda e'lon qilingan, jumladan, 9 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosida o'tkazilgan anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamalardan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,

fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola e'lon qilingan, jumladan, 1 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 114 betni tashkil etadi.

## **DISSERTASIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiya ishining **“Kirish”** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiya ishining **“Nikotin saqllovchi mahsulotlar tahlilining nazariy asoslari” (Adabiyotlar tahlili)** deb nomlangan birinchi bobda nikotin saqllovchi mahsulotlar, tamakili va tamaki tutmagan nikotinli mahsulotlar, ularning shu kungacha mavjud bo'lgan va ishlab chiqaruvchi tomonidan taklif qilinayotgan yangicha turlari, shu jumladan, muqobil turlari, tamakili mahsulotlari navturlarining muhim xususiyatlari, tarkibida nikotin tutish darajasi, bundan tashqari tamaki barglari tarkibining kimyoviy ko'rsatkichlari, tayyor mahsulot tuzilmasi, tamakili mahsulotlar tutunining kimyoviy ko'rsatkichlari, tamaki tutmagan nikotinli mahsulotlarning tarkibi, nikotinli mahsulotlar tarkibini aniqlash uchun foydalaniladigan metodlar tahlil qilingan. Bu tahlillar natijasida nikotin saqllovchi kimyoviy mahsulotlar va ular tarkibidagi kimyoviy moddalarni TIF TN bo'yicha tasniflash usullariga ko'ra izlanishlar olib borish zarurligi ilmiy asoslanib bob yuzasidan xulosalar berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Nikotin saqllovchi mahsulotlarning bioorganik va anorganik kimyoviy tarkibini zamonaviy uslublarda aniqlash”** deb nomlangan ikkinchi bobda nikotin saqllovchi mahsulotlarning kimyoviy tarkibini tadqiq etish va olingan natijalarning qiyosiy tahlillari yoritilgan. Nikotin saqllovchi mahsulotlarning kul tarkibini o'rganish natijalariga ko'ra, kul miqdori 10,29-23,42% miqdorni tashkil etdi. O'tkazilgan tadqiqotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, “Oden's” tamakili snyus tarkibidagi kul miqdori “Kent” va “Choice” namunalari nisbatan yuqoridir (1-jadval).

### **1-jadval.**

#### **“Oden's”, “Kent” va “Choice” namunalari tarkibidagi kul miqdori**

Tigel №	Tigel massasi, g	Dastlabki namunali Tigel massasi, g	Namuna massasi, g	Kuydirishdan so'ng Tigel massasi, g	Kul miqdori, %
Kent (sigaret)					
Tajriba 1	17,310	18,130	0,82	17,401	11,09
Oden's (tamakili snyus)					

Tajriba 2	17,790	19,028	1,238	18,080	23,42
Choice (samakrutka)					
Tajriba 3	16,886	17,896	1,01	16,990	10,29

Tadqiqot obyektlari mineral tarkibini o'rganish natijalari 2-jadvalda berilgan. Oden's (tamakili snyus) tarkibida 20 ta element aniqlangan. Makroelementlar miqdori quyidagi tartibda kamayib boradi (%): Ca > Mg > K > P > Na; miqdori ko'proq mikroelementlar esa quyidagicha o'zgaradi: Si > Al > Ti > Fe = Mn > Ba = Sr > B > Cu = Li. Zaharli elementlardan faqat qo'rg'oshin (0,0002%) mavjud bo'lib "Kent" tarkibida 19 ta element aniqlangan. Makroelementlar miqdori quyidagi tartibda kamayib boradi (%): Na > Ca = K = Mg > P; miqdori ko'proq mikroelementlar esa quyidagicha o'zgaradi: Si > Al > Li > Ti > B > Fe > Sr > Ba = Mn > Cu = Li. Zaharli elementlardan faqat qo'rg'oshin (0,0001%) bor.

"Choice" tarkibida 20 ta element topildi. Makroelementlar miqdori quyidagi tartibda kamayib boradi (%): Na > Ca > K = Mg > P miqdori ko'proq mikroelementlar esa quyidagicha o'zgaradi: Si > Al > Ti > Li > Fe = Ba = Mn > Sr = B > La = Cu. Zaharli elementlardan faqat qo'rg'oshin(0,0003%) aniqlandi.

## 2-Jadval

### Tamaki mahsulotlari mineral tarkibi

№	Element	Massa ulushi, %		
		Kent	Oden's	Choice
1	Si	3	0,8	0,8
2	Al	0,4	0,3	0,3
3	Ca	30	15	10
4	Na	0,08	>30	30
5	K	10	10	10
6	Fe	0,2	0,07	0,08
7	Mg	15	10	10
8	P	3	1,5	2
9	Ba	0,1	0,05	0,08
10	Sr	0,1	0,06	0,04
11	B	0,06	0,08	0,04
12	Mn	0,2	0,05	0,08
13	Ti	0,3	0,1	0,2
14	Cr	0,001	-	-
15	Cu	0,03	0,01	0,01
16	Pb	0,0002	0,0001	0,0003
17	Zn	-	-	0,01
18	Mo	0,0006	0,001	0,0006
19	Li	0,03	0,2	0,15
20	La	0,006	0,01	0,02
21	Zr	0,006	0,003	0,003

Nikotin saqlovchi mahsulotlarning umumiy oqsil miqdoriy tarkibining qiyosiy tahlili natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

## 3-jadval

## Umumiy oqsilni aniqlash natijalari

Namuna	Namuna massasi, g	Alikvot, ml	To'liq uzunligi $\lambda = 400 \text{ nm}$	Oqsil, %
Kent (sigaret)	0,241	0,3	0,154	12,68
Oden's (tamakili snyus)	0,326	0,3	0,300	17,85
Choice (samakrutka)	0,327	0,3	0,203	10,63

Kent (sigaret) sigareta tarkibida 12,68%, Oden's (tamakili snyus) 17,85% va Choice tarkibida 10,63% oqsil aniqlangan. Ko'rinib turibdiki, Oden's (tamakili snyus) tarkibida oqsil miqdori qolgan ikki namunaga nisbatan yuqori. Choice (samakrutka) namunasi tarkibida eng kam miqdorda oqsil bor.

O'rganilgan namunalarning aminokislota tarkibi tadqiq qilinganda 1 g namuna tarkibida 0,162959 mgdan 1,395773 mggacha aminokislota borligi ma'lum bo'ldi va jami 18 xil aminokislolaning mavjudligi ko'rindi (4-jadval).

## 4-jadval


## O'rganilgan namunalarning aminokislota tarkibi

	Aminokislotalar nomi	Kent	Oden's	Choice
		mg/gr		
1.	Asparagin kislota	0,000203	0	0
2.	Glutamin kislota	0,000424	0	0
3.	Serin	0,000536	0	0
4.	Glitsin	0,000139	0,000172	0,000172
5.	TSistein	0,008502	0,000410	0,000267
6.	Treonin*	0,000151	0	0
7.	Arginin	0,0152	0,048112	0
8.	Alanin	0,018982	0,000755	0
9.	Prolin	0	0	0
10.	Tirozin	0	0	0
11.	Valin*	0	0,000307	0,000437
12.	Metionin*	0	0,407597	0,245948
13.	Gistidin	0,000151	0	0,000225
14.	Izoleytsin*	0	0	0
15.	Leytsin*	0,000168	0	0,002089
16.	Triptofan	0,001819	0	0
17.	Fenilalanin*	0,061222	0,061222	0,061222
18.	Lizin HCl*	0,055462	0,877198	0,391555
	<b>Ja'mi</b>	<b>0,162959</b>	<b>1,395773</b>	<b>0,701915</b>
	<b>Oqsil</b>	<b>12,68</b>	<b>17,85</b>	<b>10,63</b>

\*-almashinmaydigan aminokislotalar

Nikotin saqlovchi mahsulotlarning uglevod tarkibi tadqiq qilindi. Namunalarning tarkibidagi quyi molekulyar uglevodlar qog'oz xromatografiyasi usuli yordamida o'rganildi. "Kent" va "Choice" tarkibida glyukoza, fruktoza va saxarozalar aniqlandi. Oden's tamakili snyus tarkibida esa quyi molekulyar uglevodlar deyarli aniqlanmadi. "Kent", "Choice" va "Oden's" tarkibidagi polisaxaridlar miqdori tegishli ravishda 18,18%, 3,84% va 12,0% ekanligi ma'lum bo'ldi va polisaxaridlarni gidroliz qilib qog'oz xromatografiyasi usuli yordamida namunalarning tarkibida galaktoza, glyukoza, arabinoza, ksiloza va uron kislotalar borligi ko'rindi. Bob yakunida shu bobda o'rganilgan ishlar bo'yicha xulosalar bayon etildi.

Dissertatsiya ishining “**Nikotin saqlovchi mahsulotlarning kimyoviy tarkibini xromato-mass-spektrometriya, mass-spektrometriya va IQ spektrometriya uslublarida aniqlash**” deb nomlangan uchinchi bobida tarkibida nikotin mavjud bo‘lgan mahsulotlar xromato-mass-spektrometriya, mass-spektrometriya va IQ spektrometriya uslublarida o‘rganildi. Nikotin saqlovchi mahsulotlarning kimyoviy tarkibini xromato-mass-spektrometriya uslubida aniqlash tadqiqotlari uchun «White fox» markali tamakisiz snyus (Shvetsiya), «Oden's» markali tamakili snyus (Shvetsiya), «Kent» markali sigaret (O‘zbekiston) va «HQD Cuvie» markali elektron sigaretalar (Rossiya) tanlab olindi. «White fox» markali tamakisiz snyus xromato-mass-spektri 1-rasmda va xromato-mass-spektral tahlil natijalari 5-jadvalda keltirilgan.



### 1- “White fox” tamakisiz snyus xromatogrammasi

Tahlil natijasida «White fox» markali tamakisiz snyus tarkibida 7 ta birikma aniqlangan. Tamakisiz snyus tarkibida propilenglikol, benzil spirti, D-karvon, 2-etil- $\alpha$ -D-eritro-geks-2-enpiranozid, nikotin, N,N-dimetil-9-oktadetsen-amid va bis(2-etilgeksil) tereftalat aniqlandi. Asosiy birikmalar nikotin (57,44%), D-karvon (16,42%) va propilenglikol (8,26%) hisoblanadi. Eng yuqori miqdordagi nikotin tamakisiz snyusda va bu snyus tarkibida tamaki bo‘lmasa ham, nikotin yuqori miqdorda ekanligini ko‘rsatadi. D-karvon oziq-ovqat va xushbo‘y hidli birikmalar sanoatida ishlatilib snyusga xushbo‘y hid berish uchun qo‘shiladi. Propilenglikol esa erituvchi va nikotin bilan birgalikda tamaki ta’sirini berish uchun qo‘shiladi. Benzil spirti bakteriostatik konservant, qovushqoqlikni oshirish va kuchsiz aromatik hidga ega birikma sifatida ishlatiladi. Bis(2-etilgeksil) tereftalat juda yaxshi plastifitsirlovchi xususiyatga ega bo‘lib, reproduktiv toksikligi juda kichikdir.


### 5-Jadval

#### “White fox” markali tamakisiz snyus tarkibi

№	Birikma	RT*	%
1	Propylene Glycol	2.741	8.26
2	D-Carvone	8.749	16.42
3	alpha.-d-Erythro-hex-2-enopyrano-side, ethyl 2	9.217	6.21
4	Pyridine, 3-(1-methyl-2-pyrrolidi-nyl)-, (S)-	10.010	57.44
5	9-Octadecenamide, N,N-dimethyl-	12.569	4.18
6	Benzyl alcohol	6.229	4.25
7	1,4-Benzenedicar-boxylic acid,bis(2-ethylhexy)	18.549	3.24
$\Sigma$			<b>100</b>

\* - Ushlanish vaqti

“Kent” markali sigaretning xromato-mass-spektri 2-rasmda va xromato-mass-spektral tahlili natijalari 6-jadval keltirilgan.



**2-rasm. «Kent» markali sigaret xromatogrammasi**

Tahlil natijasida 8 ta birikma: propilenglikol, 2-etil- $\alpha$ -D-eritrogeks-2-enpiranozid, nikotin, neofitadien, geksadekan kislota metil efiri, (Z)-9-oktadetsen kislota metil efiri, metil stearat va 2-butil-3-metil-5-(2-metilpropp-2-enil) siklogeksanon aniqlandi. Asosiy birikmalar geksadekan kislota metil efiri (24.44%), propilenglikol (19.60%), nikotin (16,34%), D-karvon (16,42%) va (Z)-9-oktadetsen kislota metil efiri (12.07%) hisoblanadi. «Kent» markali sigaret tarkibida nikotin va propilenglikol bilan bir qatorda sigaretning asosiy tarkibiy qismini yuqori to‘yingan va to‘yinmagan karbon kislotalarning metil efirlari tashkil etishini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda sigaret tarkibida terpenlar neofitadien va 2-butil-3-metil-5-(2-metilprop-2-enil) siklogeksanon mavjudligi ko‘rindi.


**6-Jadval**

**“Kent” markali sigareta tarkibi**

№	Birikma	RT*	%
1	Propylene Glycol	2.719	19.60
2	alpha.-d-Erythro-hex-2-enopyranoside, ethyl 2	9.210	11.03
3	Pyridine, 3-(1-methyl-2-pyrrolidinyl)-,(S)-	10.042	16.34
4	Neophytadiene	14.737	2.21
5	Hexadecanoic acid, methyl ester	15.491	24.44
6	9-Octadecen-oic acid (Z)-, methyl ester	16.914	12.07
7	Methyl stearate	17.105	10.43
8	2-Butyl-3-methyl-5-(2-methylprop-2-enyl)cyclohexa-none	18.799	3.87
$\Sigma$			<b>100</b>

\* - Ushlanish vaqti

«HQD Cuvie» markali elektron sigaret xromato-mass-spektri 3-rasmda va xromato-mass-spektral tahlili natijalari 7-jadvalda keltirilgan.



**3-rasm. “HQD Cuvie” markali elektron sigareta xromatogrammasi**

Tahlil natijasida 5 ta birikma aniqlangan. «HQP Cuvie» markali elektron sigareta tarkibida propilenglikol, 5-metil-2-(1-metiletil)siklogeksanol (mentol), benzoy kislotasi, 2-etil- $\alpha$ -D-eritro-geks-2-enpiranozid va nikotin tereftalat aniqlandi. Asosiy birikmalar propilenglikol (59,46%), nikotin (19,61%) va 2-etil- $\alpha$ -D-eritro-geks-2-enpiranozid (12,01%) hisoblanadi. «HQP Cuvie» markali elektron sigaret tarkibida nikotin va propilenglikol bilan bir qatorda, 5-metil-2-(1-metiletil)siklogeksanol (mentol) va benzoy kislotasi borligi aniqlangan. Tajribalar davomida 5-metil-2-(1-metiletil)siklogeksanolni konfiguratsiyasi aniqlanmagan bo'lsa-da, uni tarkibi mentolga tegishli ekanligini ko'rsatadi.


#### 7-Jadval

**«HQP Cuvie» markali elektron sigaret tarkibi**

№	Birikma	RT*	%
1	Propylene Glycol	3.107	59.46
2	Cyclohexanol, 5-methyl-2-(1-methylethyl)	7.944	1.41
3	Benzoic acid	9.284	7.51
4	alpha.-d-Erythro-hex-2-enopyranoside, ethyl 2	9.284	12.01
5	Pyridine, 3-(1-methyl-2-pyrrolidinyl)-	10.084	19.61
$\Sigma$			<b>100</b>

\* - Ushlanish vaqti

«Oden's» markali tamakili snyus xromato-mass-spektri 4-rasmda va xromato-mass-spektral tahlili natijalari 8-jadvalda keltirilgan.



**4-rasm. «Oden's» markali tamakili snyus xromatogrammasi**

#### 8-Jadval

**«Oden's» markali tamakili snyus tarkibi**

№	Birikma	RT*	%
1	Acetonitrile	1.575	84.24
2	Propylene Glycol	2.733	1.42
3	D-Carvone	8.764	7.75
4	Pyridine, 3-(1-methyl-2-pyrrolidinyl) -, (S)-	10.010	5.75
$\Sigma$			<b>99.16</b>

\*- Ushlanish vaqti

Tahlil natijasida 4 ta birikma: atsetonitril (84,24%), D-karvon (7,75%) va nikotin (5,75%) borligi va atsetonitrilni erituvchi sifatida ishlatilganini hisobga olsak, «Oden's» markali tamaki snyus uchta tarkibiy qismdan iborat, deb aytish mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, nikotin saqlovchi mahsulotlarni kimyoviy komponentlar tarkibida bo'lgan umumiy va farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatib o'tish mumkin. 9-jadvalda

nikotin saqlovchi mahsulotlarni solishtirma komponent tarkibi keltirilgan. Bundan ko‘rinadiki, tadqiq qilingan nikotin saqlovchi mahsulotlarni to‘rtta turida nikotin va propilenglikol mavjud. Agar biz «Oden's» markali tamakili snyusdagi erituvchi atsetonitrilni hisobga olmasak (nikotin-38,54% va D-Karvon- 51,94%), «Oden's» markali tamakili snyus va «White fox» markali tamakisiz snyus tarkibida nikotin va xushbo‘y modda D-Karvon yuqori miqdorga ega ekanligini ko‘rish mumkin. «White fox» markali tamakisiz snyus tarkibida nikotin yuqori miqdorga ega bo‘lsa, «Oden's» markali tamakili snyus tarkibida esa propilenglikol yuqori miqdorga ega. Ikkala snyus tarkibida xushbo‘y modda D-karvon miqdori bir-biriga yaqinligini ta’kidlash joiz. «HQD Cuvie» markali elektron sigareta tarkibida xushbo‘y modda sifatida mentol qo‘shilgan. Propilenglikol miqdori esa nikotinga qaraganda uch marta ko‘pligini ko‘rish mumkin. «Kent» markali sigareta tarkibida nikotin va propileglikol miqdori 1:1.2 nisbatda ekanligi aniqlangan. Sigaret tarkibiga xushbo‘y modda qo‘shilmagan. Tamakili va tamakisiz snyuslar tarkibida yuqori miqdorda nikotin bo‘lishi aniqlandi. Ikkala snyusda xushbo‘y modda sifatida D-karvon ishlatilib, tamakili snyus tarkibida xushbo‘y ta‘m beruvchi moddaning miqdori nikotinga nisbatan solishtirilganda ko‘proqdir.

## 9-Jadval

### Nikotin saqlovchi mahsulotlarni xromato-mass- spektral tahlili natijalariga ko‘ra solishtirma komponent tarkibi(%).


№	Nikotin saqlovchi mahsulot	Nikotin	Propilenglikol	Xushbo‘y modda
1	«White fox» markali tamakisiz snyus	57.44	8.26	16.42(D-Karvon)
2	«Kent» markali sigareta	16.34	19.60	-
3	«HQD Cuvie» markali elektron sigaret	19.61	59.46	1.41(mentol)
4	«Oden's» markali tamakili snyus	5.75	1.42	7.75 (D-Karvon)

Tadqiqotlarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, tamakili va tamakisiz snyuslar tarkibida nikotin miqdori ancha ko‘p bo‘lib unga propilenglikol va xushbo‘y modda qo‘shiladi. «HQD Cuvie» markali elektron sigaret tarkibida nikotin miqdori «Kent» markali sigaret bilan solishtirilganda 1.2:1 nisbatni ko‘rsatdi. Elektron sigaret tarkibida yuqori miqdorda propilenglikol bo‘lib sigaretdan farqli ravishda xushbo‘y modda qo‘shiladi.


Nikotin saqlovchi mahsulotlar kimyoviy tarkibi AxION2 TOF MS qurilmasida DSA/APCI tizimi yordamida o‘rganildi. «Oden's» markali tamakili snyusining mass-spektri m/z 100 dan 800 gacha bo‘lgan bir nechta cho‘qqilarni ko‘rsatdi(5-rasm). Mass-spektrida m/z 151,1253 bo‘lgan ion D-karvonga xos bo‘lgan intensiv cho‘qqi mavjudligini ko‘rsatdi. Shuni ta’kidlash kerakki, mass-spektridagi m/z 151,1253(M+1)<sup>+</sup> cho‘qqisi D-karvonning individual spektral ma’lumotlariga juda yaqin.

Individual holatda mass-spektrometrik tadqiqotlarda olingan D-karvon m/z 150,22 ga ega. Bu natijaning ishonchliligini ko‘rsatadi. D-karvon bilan bir qatorda mass-spektrda m/z 163,1367(M+1)<sup>+</sup> ega nikotin aniqlandi. Nikotin «Oden's» markali tamakili snyusining mass-spektrida nisbatan yuqori miqdori bilan tavsiflanadi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan moddalar bir qatorda «Oden's» markali tamakili snyusining mass-spektrida m/z 109,0736(M+1)<sup>+</sup> da benzil spirti

mavjudligi ko‘rindi. «White fox» tamakisiz snyusning mass-spektrida m/z 100 dan 900 gacha bo‘lgan bir nechta cho‘qqilarni o‘z ichiga oladi (5-rasm).



**5-rasm. “Oden's” markali tamakili snyus mass-spektri**




**6-rasm. “White fox” markali tamakisiz snyus mass-spektri**


Tahlil natijasida mass-spektrdagi mavjud cho‘qqilar orasida quyidagi birikmalar aniqlandi. M/z 109.0734(M+1)<sup>+</sup> bo‘lgan cho‘qqi benzil spirtiga va m/z 163,1367(M+1)<sup>+</sup> bilan eng yuqori cho‘qqi nikotinga to‘g‘ri keladi.

O‘rganilgan barcha namunalarni orasida «White fox» tamakisiz snyus biz o‘rgangan boshqa nikotinni o‘z ichiga olgan mahsulotlarga qaraganda yuqori nikotin kontsentratsiyasini o‘z ichiga oladi. 2-etil-alfa- D -eritro-geks-2-enopiranozidning m/z 173.1864(M-1)<sup>+</sup> ning past miqdori ham aniqlandi. «Kent» markali sigaretning mass-spektrida m/z 100 dan 900 gacha bo‘lgan bir qancha cho‘qqilar kuzatildi (7-rasm). Tahlil natijasida mass-spektrdagi mavjud cho‘qqilar orasida bir nechta identifikatsiya qilindi. Nikotinga mos cho‘qqi m/z 163,1367 (M+1)<sup>+</sup> ga ega. *Nicotiana tabacum L.* o‘simligi tarkibida juda ko‘plab fitokimyoviy moddalar ajratib olingan. O‘simlik kabi tamaki tarkibida ham turli fitokimyoviy moddalar mavjud. Alkaloidlar tamaki tarkibidagi muhim birikmalardir. Shuni ta’kidlash lozimki, qolgan alkaloidlar nikotin kabi yuqori miqdorga ega emasdir. «Choice» tamaksining mass-spektrida m/z 100 dan 800 gacha bo‘lgan bir nechta cho‘qqilar kuzatiladi(8-rasm). Tahlil natijasida mass-spektrdagi mavjud cho‘qqilar orasida quyidagi birikmalar aniqlangan: M/z 163,1351(M+1)<sup>+</sup> dagi cho‘qqi nikotinga va m/z 271.2653(M-1)<sup>+</sup> ega cho‘qqi geksadekan kislota metil efirga tegishlidir va mass-spektrda bir qancha birikmalarni cho‘qqilarini kuzatish mumkin, m/z 177,0731(M+1)<sup>+</sup> dagi cho‘qqi kotininga (Mr 176.2) tegishlidir, anatabinga (Mr160.2) xos cho‘qqi 161,1336(M+1)<sup>+</sup> da namoyon bo‘ladi.

Rutin (Mr 610.521) tegishli cho‘qqi m/z 611.6108(M+1)<sup>+</sup> teng bo‘lib, nikotin bilan intensivligi bir xildir. Kempferolga (Mr 286.23) tegishli cho‘qqi m/z 287, 2619(M+1)<sup>+</sup> ga egadir. Mass-spektrdagi m/z 463,4686(M-1)<sup>+</sup> dagi cho‘qqi kvartetin-3-O-β-D-galaktopiranozid (Mr 464.38)ga tegishlidir. Taksifolin (Mr304.25) m/z 305,1612(M+1)<sup>+</sup> da cho‘qqiga ega bo‘ladi. δ-Tokotrienol (Mr 396.3) m/z 397,41(M+1)<sup>+</sup>; γ-tokotrienol (Mr 410.63) va β-tokotrienol(Mr 410.64) lar esa m/z 410,4251 M<sup>+</sup> mass-spektrda aniq namoyon bo‘ladigan cho‘qqiga egadirlar.



**7-rasm. «Kent» markali sigaretaning mass-spektri**



**8-rasm. «Choice» samakrutka tamakisining mass-spektri**

Mass-spektrdagi maksimal ion (+)-epikatexin -7-O-β-D-glyukopiranozid - glyukozidga tegishli bo‘lib, m/z 613,6268(M-1)<sup>+</sup> da tegishli cho‘qqiga egadir. Nikotin saqllovchi to‘rtta mahsulotni mass-spektrlari tahlili natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin. «Oden's» markali tamakili snyus va «White fox» markali tamakisiz snyus tarkibida nikotin 163.1367 ga ega bo‘lib, mass-spektrda maksimal intensivlikka ega bo‘ladi (10-jadval).

**10-Jadval**

**Nikotin saqllovchi mahsulotlarni mass- spektral tahlili natijalariga ko‘ra solishtirma komponent tarkibi(%)**

№	Nikotin saqllovchi mahsulot	Nikotin	
		m/z	Intensivlik
1	«Oden's» markali tamakili snyus	163.1367	100%
2	«White fox» markali tamakisiz snyus	163.1367	100%
3	«Kent» markali sigareta	163.1369	55%
4	«Choice» samakrutka tamakisi	163.1351	25%

«Kent» markali sigaret tarkibida nikotin m/z 163.1369ga ega bo‘lib, intensivligi maksimal ionga nisbatan ~55%ni tashkil etadi. «Choice» samakrutka tamakisining tarkibida nikotin m/z 163.1351ga ega bo‘lib intensivligi maksimal ionga nisbatan ~25%ni tashkil etadi. Bundan ko‘rinadiki, «Oden's» markali tamakili snyus va «White fox» markali tamakisiz snyus tarkibida nikotin miqdori yuqori bo‘ladi. «Kent» markali sigareta tarkibida o‘rtacha miqdorda bo‘ladi. «Choice» samakrutka tamakisi tarkibida past miqdorda bo‘ladi. Snyuslar tarkibida nikotin miqdori sigareta va boshqa mahsulotlarga qaraganda yuqori bo‘lib bu nikotinni “o‘rganib qolish” xususiyatini hisobga olganda insonlarda snyus va bu kabi nikotin saqllovchi mahsulotlarga o‘rganib qolishini kuchaytiradi.

«Oden's» markali tamakili snyus, «White fox» tamakisiz snyus, «Kent» markali sigareta va «Choice» samakrutka tamakining IQ-spektrlari o‘rganildi.«Oden's» markali tamakili snyus IQ-spektrini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, spektrda bir necha sohalarni ta’kidlab o‘tish mumkin.

**11-Jadval.****Nikotin saqlovchi mahsulotlarni IQ-spetrlari tahlili natijalariga ko‘ra xususiyatli yutilish chiziqlari**

№	Xususiyatli yutilish	Nikotin saqlovchi mahsulotlar			
		«Oden's» markali tamakili snyus	«White fox» markali tamakisiz snyus	«Kent» markali sigareta	«Choice» samakrutka tamakisi
1	sv (O–H, N–H)	3100-3600	3100-3500	3100-3600	3100-3600
2	vas (CH <sub>2</sub> )	2800-3050	2800-2950	2800-3050	2800-3050
3	v (C=O–O)	1620	1630-1640	1620	1620
4	δ (CH <sub>2</sub> ), δ (C–O–H)	1400	1370	1400	1400
5	v (C–C,C–O),δ (C–O–H)	800-1200		800-1200	800-1200

O‘rta Osiyoda keng miqyosida ommalashgan hamda asosiy tarkibi tamakidan iborat mahalliy nosvoy tarkibi ham taqiq etildi.

**12-jadval****Nosvoyning bakterial tarkibi tahlili**

Namuna	Bakterial madaniyat(KHB/g)
Nosvoy(1 namuna)	6,4
Nosvoy(2 namuna)	6,5
GothiaTek	0

Birinchi nosvoy namunasida - bakterial madaniyat 6,4 log KHB/g, ikkinchi namunada esa 6,5 log KHB/g aniqlangan. GothiaTek standarti - bakterial madaniyatni to‘liq bo‘lmasligini talab qiladi (12-jadval).

Nosvoyning 1 namunasida 11,0 mln.u. va 2 namunasida 94 mln.u. nitirt ioni mavjud. GothiaTek standartiga ko‘ra tamaki tarkibidagi nitrit ionlari miqdori 3,5 mln.u. gacha bo‘lishi mumkin. Barcha nosvoy namunalarida nitrozodimetilamin miqdori GothiaTek standartining ruxsat etilgan me‘yorida bo‘lgan. Birinchi nosvoy namunasida 0,8 mlrd.u., ikkinchi namunada - 2,1 mlrd.u., GothiaTek standartida esa nitrozodimetilaminning ruxsat etilgan me‘yorida 5,0 mlrd.u. ni tashkil qilgan. Tamaki mahsulotlariga xos N-nitrozaminlar miqdori nosvoyning birinchi namunasi 1,2 mln.u., ikkinchi namunada 2,5 mln.u. ni tashkil etdi. Birinchi namunadagi miqdor GothiaTek standartiga mos keldi (13-jadval). Nosvoy tarkibidagi tamaki o‘rganilgandan so‘ng, nosvoyning qolgan qismlarini tahlil qilindi. Nosvoyning birinchi namunasida 3,9 mlrd.u. hamda ikkinchi namunada 2,8 mlrd.u. benzpiren aniqlanib, GothiaTek standart me‘yorlaridan biroz oshib ketdi (14-jadval).

**13-jadval****Nosvoyni tarkibidagi tamakini kimyoviy tahlili**

Namuna	Nitrit (mln.u.)	Nitrozodimetilamin (mlrd.u.)	N-nitrozoamin (mlrd.u.)
Nosvoy(1 namuna)	11	0,8	1,2
Nosvoy(2 namuna)	94	2,1	2,5
GothiaTek	3,5	1,15	1,00

Shuningdek, nosvoy aralashmalarida xrom, nikel, kadmiy, qo‘rg‘oshin va mishyak kabi elementlarni miqdori aniqlandi. Turli xil namunalarda bu elementlarning har xil miqdori topildi. Birinchi namunada xrom miqdori 22,9

mln.u., ikkinchisida 27,1 mln.u. ni tashkil etdi. Nosvoydagi nikel miqdori birinchi namuna uchun 9,02 mln.u. hamda ikkinchi namuna uchun 13,9 mln.u miqdorni tashkil etdi. Kadmiy miqdori birinchi namunada 0,998 mln.u. va ikkinchisida 0,659 mln.u.ni tashki etdi. Qo‘rg‘oshinning miqdori nosvoyning-birinchi va ikkinchi namunalari uchun 38,5 mln.u. va 26,8 mln.u.ni tashkil etdi. Nosvoyning turli namunalarida mishyak miqdori bir biridan juda farq qildi. Agar birinchi nosvoyda 21,4 mln.u. mishyak bo‘lsa, ikkinchi nosvoy namunasida 9,18 mln.u. bo‘lgan.

#### 14-jadval

#### Nosvoy tarkibidagi benzpiren va mineralar tahlili

Namuna	Benzpiren (ng/g)	Xrom (mln.u.)	Nikel (mln.u.)	Mishyak (mln.u.)	Kadmiy (mln.u.)	Qo‘rg‘oshin (mln.u.)
Nosvoy(1namuna)	3,9	22,6	8,89	21,6	0,957	38,8
Nosvoy(2 amuna)	2,8	26,8	13,2	9,14	0,643	26,9
GothiaTek	2,5	1,5	2,25	0,25	0,5	1

Tadqiq etilgan ishlar yuzasidan bob yakunida xulosalar bayon etilgan.

#### XULOSALAR

Tarkibida nikotin saqlovchi kimyoviy mahsulotlarni tovarlar nomenklaturasi asosida sinflash yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekiston Respublikasiga import va undan eksport qilinayotgan tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarning kul, makro va mikroelement tarkibini aniqlashning tezkor uslublari ishlab chiqildi;

2. O‘zbekiston Respublikasiga import va undan eksport qilinayotgan tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarning aminokislotalar tarkibini YuSSX usulida aniqlash uslublari ishlab chiqildi;

3. Tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarga yangi taklif etiladigan tovar kodlarini O‘zbekiston Respublikasi TIF TNning yangi tahririga qo‘shish bo‘yicha Bojxona qo‘mitasiga takliflar kiritildi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining 2022-yilgi tahririni joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-460-son Qarori bilan amaliyotga joriy qilindi (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi tomonidan 2024-yil 24-mayda berilgan 17/05-24-1002 son ma’lumotnomasi).

4. Bojxona ekspertizasi uchun namuna va sinamalar olish yuzasidan ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilingan tartib asosida olingan namuna va sinamalar ekspertiza xulosalarining to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlaydi;

5. Markaziy bojxona laboratoriyasi uchun tarkibida nikotin bo‘lgan tamaki va boshqa mahsulotlarni bojxona ekspertizasini amalga oshirishda tezkor, ishonchli va aniq bo‘lgan analitik bitta uslub ishlab chiqildi (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi tomonidan 2024-yil 23-mayda berilgan 17/05-24-0994-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu uslub yordamida bojxona xizmati organlarida tarkibida nikotin bo‘lgan tamaki va boshqa mahsulotlarni import

qilishda ularning kimyoviy tarkibiga ko'ra to'g'ri TIF TN kodlarini belgilash va standartlash dasturlari bojxona qo'mitasi amaliyotiga joriy qilingan;

6. O'zbekiston Respublikasiga import va undan eksport qilinayotgan tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarni tashqi savdo aylanmasi dinamikasi tahlilini amalga oshirish orqali tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlar miqdoriy kimyoviy tarkibini tadqiq qilish natijasida davlat byudjetiga bojxona bojlari va aksiz soliqlarini noto'g'ri qo'llanilishiga sabab bo'layotgan omillar aniqlanib davlat byudjetiga qo'shimcha mablag'lar tushishi ta'minlandi;

7. AQShning Perkin Elmer kompaniyasining modeli "Perkin Elmer AxION 2 TOF MS, DSA" bo'lgan mass spektrometri uskunasi uchun tamaki va boshqa nikotin saqlovchi mahsulotlarni kimyoviy tarkibini aniqlash yuqori aniqlik va samara beradi;

8. Infraqizil spektroskopiya uskunasi yordamida tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlarning tarkibi va tuzilishini kompleks tarzda aniqlash imkonini beruvchi uslublar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan;

9. Xromato-mass-spektrometriya uskunasi yordamida tarkibida nikotin bo'lgan tamaki va boshqa mahsulotlarning tarkibi va tuzilishini kompleks tarzda aniqlash imkonini beruvchi uslublar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ  
PhD.03/30.12.2019.К.05.01 ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КОКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**АЗИМОВА НАРГИЗА РАВШАНОВНА**

**КЛАССИФИКАЦИЯ НИКОТИНОСОДЕРЖАЩИХ ХИМИЧЕСКИХ  
ВЕЩЕСТВ НА ОСНОВЕ ТОВАРНОЙ НОМЕНКЛАТУРЫ**

**02.00.09-Химия товаров  
02.00.10-Биоорганическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)  
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Фергана–2024**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером \_\_\_\_\_

Докторская диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Кокандском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Ферганском государственном университете ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководители:</b>	<b>Абдуганиев Бахтиёр Ермахаматович</b> доктор химических наук, доцент
	<b>Хужаев Вахобжон Умарович</b> доктор химических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты</b>	<b>Абдуллоев Обиджон Шахабидинович</b> доктор химических наук, доцент
	<b>Нишонов Миркозимжон</b> кандидат технических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Наманганский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 г. в \_\_\_ часов на заседании Научного совета № PhD.03/30.12.2019.K.05.01 при Ферганском государственном университете (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (регистрационный номер № \_\_\_\_). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел.: (+99873) 244-44-02; факс: (+99873) 244-44-93; e-mail: [farduinfo@umail.uz](mailto:farduinfo@umail.uz)).

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года.

(Протокол рассылки № \_\_\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 года).

**А.А.Ибрагимов**  
председатель научного совета по присуждению  
учёных степеней, д.х.н., профессор

**Ш.Ш. Тургунбаев**  
учёный секретарь научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор философии по химическим наукам (PhD)

**Ш.В.Абдуллаев**  
председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.х.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Несмотря на то, что многие исследования доказали, что табачные изделия представляют серьезную опасность для здоровья человека в мире, годовой оборот табачных изделий исчисляется миллиардами долларов. Доказательства вреда для здоровья человека приводят к тому, что различные государства устанавливают ограничения на эти продукты. Предприятия, специализирующиеся на табачной промышленности, применяют различные способы обхода ограничений, чтобы не потерять свои позиции на рынке, и предлагают современный ассортимент никотинсберегающих табачных изделий. Это связано, прежде всего, с тем, что ассортимент табачных изделий увеличивается, а доходы от их реализации занимают важное место в экономике. Для исправления этой ситуации особое значение приобретает разработка универсальных методик определения химического состава этих табачных изделий.

В мире проводится ряд научно-исследовательских работ по изучению химического состава табака и других никотинсодержащих продуктов, изучению их физико-химических свойств, выработке методик правильного присвоения кодовых номеров по номенклатуре товаров внешнеэкономической деятельности и их дифференциации. В связи с тем, что применение современных физико-химических методов, а именно масс-спектрометрии, хромато-масс-спектрометрии, инфракрасной спектроскопии для идентификации никотина и ряда других канцерогенных веществ в рамках данных исследований дает надежные результаты, особое внимание уделяется разработке и внедрению в практику методов идентификации с использованием данного оборудования.

В нашей республике проведена работа по классификации и присвоению кодовых номеров ТН ВЭД на основе химического состава экспортируемой и импортируемой продукции, и достигнуты определенные результаты. В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан определены важные задачи, направленные на “Ускоренное развитие сферы услуг, повышение роли и доли услуг в формировании ВВП, коренное изменение структуры оказываемых услуг, прежде всего за счет их современных высокотехнологичных видов”. В этой связи важное значение приобретает проведение научных исследований, направленных на классификацию никотинсберегающих химических продуктов на основе товарной номенклатуры внешнеэкономической деятельности.

